RAQAMLI QARAMLIK, SUN’IY INTELLEKT TA’SIRI VA VIRTUAL IDENTIFIKATSIYANING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Abdulxayeva Gulxayoxon Abduxalim qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti Psixologiya yo’nalishi 1 – bosqich magistranti Andijon shahar 170100
abdulhayevagulhayo2@gmail.com
+998(50)807-66-64

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli asr va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining jadallikda rivojlanishi sharoiti shaxsning virtual identifikatsiyasi, o’z-o’zini anglashi hamda kiberpsixologik o’ziga xosliklari tahlil qilinadi. Raqamli muhitning inson psixikasiga, xususan, uning “Men” konsepsiyasi, kognitiv jarayonlari va ijtimoiy moslashuviga ko’rsatadigan ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, virtual identifikatsiya, o’z-o’zini anglash, raqamli muhit, kiberpsixologiya, o’z-o’zini nazorat qilish, “Men” konsepsiyasi.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности виртуальной идентификации, самосознания и киберпсихологические особенности личности в условиях стремительного развития цифровой эпохи и технологий искусственного интеллекта (ИИ). Научно-теоретически освещено влияние цифровой среды на психику человека, в частности на его концепцию «Я», когнитивные процессы и социальную адаптацию.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, виртуальная идентификация, самосознание, цифровая среда, киберпсихология, самоконтроль, концепция «Я».

Abstract: This article analyzes the characteristics of personal virtual identification, self-awareness, and cyberpsychological features in the context of the rapid development of the digital age and artificial intelligence (AI) technologies. The scientific and theoretical impact of the digital environment on the human psyche, particularly on the "self" concept, cognitive processes, and social adaptation, is highlighted.

Keywords: Artificial intelligence, virtual identification, self-awareness, digital environment, cyberpsychology, self-control, "self" concept.

Kirish: Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan raqamli asr insonlarning oldiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda turli murakkab psixologik va ijtimoiy muammolarni ham olib chiqmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar, xususan, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoni zamonaviy kiberpsixologik bilimlarga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish orqali barcha sohalarda ulkan o‘sishga erishishimiz shart. Zero, bugungi zamon va raqobat talabi shuni ko‘rsatmoqdaki, kim raqamli texnologiyalarni egallasa, u oldinga o‘tadi”[1].

Darhaqiqat, sun’iy intellekt kundalik hayotimizga faol kirib kelishi nafaqat iqtisodiy-texnik o‘zgarishlarga, balki inson psixikasida, xususan, uning o‘zini idrok etishi, virtual identifikatsiyasi va kognitiv jarayonlarida jiddiy transformatsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu psixologik tushunchalarni izohlari batafsilroq ko’rib chiqish maqsadga muvofiq bo’ladi. O’zini o’zi idrok etish – insonning o’zini shaxs sifatida tushunishi, ichki dunyosi, xususiyatlari, qobiliyatlari, hissiyotlariva boshqalar bilan munosabatini anglab yetish jarayonidir. Virtual identifikatsiya – jismoniy shaxs yoki tashkilotning raqamli makonda (internet, ijtimoiy tarmoqlar, electron hukumat tizimlari va boshqalarda) o’ziga xosligini tasdiqlovchi ma’lumotlar majmui va uni aniqlash jarayonidir. Kognitiv jarayon – insonning tashqi olamni bilishi, o’rganishi, eslab qolishi, va u haqidagi axborotni qayta ishlashini ta’minlovchi ruhiy jarayondir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu mavzu yuzasida yana bir muhim fikrlarida shunday deyiladi: “Yoshlarimizning zamonaviy ilm-fan cho‘qqilarini egallashi, axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sirlarini puxta o‘zlashtirishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz kerak”[2]. Shu boisdan ham, raqamli muhit va sun’iy intellektning yoshlar ongiga, ularning virtual olamdagi o‘zini anglash darajasiga va xulq-atvoriga ta'sirini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Maqolaning asosiy maqsadi - raqamli asr va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida shaxsning virtual identifikatsiyasi, o‘z-o‘zini anglashi hamda raqamli qaramlikning psixologik jihatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada raqamli muhitning inson psixikasiga, xususan uning “Men” konsepsiyasiga, kognitiv jarayonlariga va ijtimoiy moslashuviga ko‘rsatadigan ijobiy hamda salbiy ta’sirlarini o‘rganish, shuningdek, yoshlarda kibergigiyena va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Adabiyotlar tahlili: Zamonaviy kiberpsixologiya va sotsiologiya fanlarida virtual muhit hamda sun’iy intellektning shaxsga ta'siri masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan: A. A. Voyskunskiy[3] o‘z ishlarida internet-makon va virtual muhit insonning shaxsiy xususiyatlari, muloqot qilish tarzi hamda xulq-atvorini o‘zgartirib yuborishini, kiberfazo inson uchun ikkinchi reallikka aylanayotganini ta’kidlaydi. R. Baumeister[4] o‘zining o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) nazariyasida raqamli rag‘batlar va virtual olamdagi cheksiz imkoniyatlar

[1] Mirziyoyev, Sh. M. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. — Toshkent : «O‘zbekiston» NMIU, 2020.
[2] Mirziyoyev, Sh. M. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ilm-fan cho‘qqilarini egallash borasidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — URL: www.president.
[3] Voyskunskiy, A. A. Психологические исследования интернет-вызовов / А. А. Войскунский. — Москва : МГУ, 2010.
[4] Baumeister, R. F., & Vohs, K. D. Self-Regulation, Ego Depletion, and Motivation // Social and Personality Psychology Compass. — 2007.

shaxsning irodaviy zo‘riqishiga, energiya sarfiga olib kelishini va o‘z-o‘zini nazorat qilish mexanizmlarini zaiflashtirishi mumkinligini ilmiy asoslab bergan.

Bu borada quyidagi o‘zbekistonlik tadqiqotchilarning ham raqamli texnologiyalar sharoitida yoshlarning psixologik xavfsizligini ta’minlash, kiberqaramlikning oldini olish bo‘yicha qator ilmiy yondashuvlarni ilgari surishgan. Professor G’. B. Shoumarov[5] rahbarligidagi ilmiy maktab vakillari shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi, oilaviy va shaxslararo munosabatlarda axborot muhitining ta’sirini o‘rganishda muhim nazariy asoslarni yaratganlar. Ular shaxsning inqirozli holatlarda o‘zini-o‘zi boshqarishi va psixologik barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilganlar.

Metodologiya: Ushbu muammo yuzasidan o’tkazilgan tadqiqotda nazariy tahlil, ilmiy adabiyotlarni o’rganish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mavzu bo’yicha psixologiya, kiberpsixologiya va pedagogika sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat: raqamli muhit va sun’iy intellekt texnologiyalarining shaxs hayotidagi o’rnini aniqlash; virtual identifikatsiya va o’z-o’zini anglash jarayonlarining psixologik jihatlarini o’rganish; psixologik yondashuvlarni taqqoslash; raqamli qaramlikning oldini olish hamda shaxsning psixologik barqarorligini qo’llab-quvvatlash bo’yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish. Ushbu maqola nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo’lib, unda muallif tomonidan yangi empirik ma’lumotlar to’planmagan. Shuning uchun keltirilgan xulosalar mavjud ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilishga asoslangan.

Raqamli qaramlik va sun’iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlari. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarining ta’lim va shaxsiy rivojlanishdagi ijobiy jihatlaridan biri o’quvchiga o’z ustida mustaqil ravishda ishlash, axborotni tezkor qidirish va shaxsiylashtirilgan bilim olish imkoniyatini berishidir. Sugata Mitra[6]ning tadqiqotlari bolalar tegishli sharoitlarda texnologiyalardan foydalanib, o’zaro hamkorlik asosida bilim va ko’nikmalarni rivojlantira olishini ko’rsatadi. Bunday yondashuv o’quvchining mustaqilligi, qiziquvchanligi va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko’nikmalarini rivojlantirishi mumkin. O’qituvchi esa faqat ma’lumot beruvchi emas, balki o’quv jarayonini yo’naltiruvchi va qo’llab quvvatlovchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt va virtual platformalar shaxsga o’zining “Men” konsepsiyasini boyitish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Boshqa tomondan, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan nazoratsiz hamda haddan tashqari ko’p foydalanish ayrim jiddiy psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin;

-diqqatning tez chalg’ishi va kognitiv barqarorlikning pasayishi;
-uyqu tartibining buzilishi va umumiy energetik toliqish;
-jismoniy faollikning kamayishi;
-yuzma-yuz muloqotning qisqarishi hamda empatiya defitsiti;
-internetdagi nazoratsiz axborotlarning psixikaga salbiy ta’siri;

[5] Shoumarov, G’. B. va boshqalar. Oila psixologiyasi. — Toshkent, 2018.
[6] Mitra, S. The Hole in the Wall: Self-Organized Learning Environments / S. Mitra. — TED Conferences, 2014.

-raqamli qaramlik (digital addiction) va o’qish hamda dam olish o’rtasidagi muvozanatning buzilishi.

Shuning uchun raqamli muhit va sun’iy intellektning shaxs taraqqiyotidagi yakuniy natijasi texnologiyaning o’ziga emas, balki undan foydalanish usuliga, shuningdek, shaxsning o’z-o’zini nazorat qilish (self-control) darajasiga bevosita bog’liqdir.

Muhokama: Olib borilgan nazariy tahlillar va adabiyotlar o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhit hamda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi shaxsning psixologik tuzilishiga, xususan, uning virtual identifikatsiyasi va o‘z-o‘zini anglash jarayonlariga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Mashhur kiberpsixolog Sherry Turkle[7] o‘zining ilmiy tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt insonlarga doimo “aloqada” bo‘lish imkoniyatini bersa-da, ko‘pincha ularni real emotsional yaqinlikdan uzoqlashtirib, o‘zaro munosabatlarda yuzaki muloqot va yolg‘izlik tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan boshqa ilmiy yondashuvlar ham shuni tasdiqlaydiki, shaxsning virtual olamga haddan tashqari berilishi va sun’iy intellekt vositalari bilan doimiy muloqotda bo’lishi muayyan kiberpsixologik xavflarni, jumladan, raqamli qaramlikni yuzaga keltiradi. A. A. Voyskunskiy[8] va boshqa olimlarning xulosalariga ko’ra, kiberfazo inson uchun yangi reallikni yaratib, real “Men” va ideal “Men” o'rtasidagi tafovutlarni kuchaytiradi. Bu esa o’z navbatida irodaviy nazoratning zaiflashishiga, yuzma-yuz muloqotning qisqarishiga va empatiya defitsitiga sabab bo’ladi. Muhokama natijalari shuni ko’rsatadiki, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning shaxs psixikasiga ta’siri ko’p jihatdan texnologiyaning o’ziga emas, balki foydalanuvchining o’z-o’zini nazorat qilish (self-control) darajasiga va kibergigiyena ko’nikmalariga tayanadi. Shuning uchun yoshlarda raqamli muhitdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish va kiberpsixologik xavfsizlikni ta’minlash bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar: Mazkur nazariy-tahliliy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli asr va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi shaxsning psixologik barqarorligiga, uning virtual identifikatsiyasi va o‘z-o‘zini anglash jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Shaxsning virtual muhitda va sun’iy intellekt vositalari bilan faol muloqot qilishi uning real “Men” va ideal “Men” obrazlari o‘rtasida kognitiv farqlari hamda emotsional begonalashuvni keltirib chiqarishi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar va tezkor axborot oqimlari nazoratsiz bo‘lganda yoshlarda irodaviy nazoratning zaiflashishi, raqamli qaramlik (*digital addiction*) va empatiya defitsiti kabi kiberpsixologik xavflar yuzaga keladi. Texnologiyalarning shaxs taraqqiyotidagi yakuniy ta’siri ko‘p jihatdan ularning o‘ziga emas, balki foydalanuvchining o‘z-o‘zini nazorat qilish (*self-control*) darajasiga va kibergigiyena madaniyatiga bevosita bog‘liqligi isbotlandi. Mavzuning

[7] Turkle, S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other / S. Turkle. — New York : Basic Books, 2011.

[8] A. A. Voyskunskiy Гиперсенсорный интернет-фактор и его влияние на психику человека // Психологический журнал. — 2015.

dolzarbligidan kelib chiqqan holda, amaliyot uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: Kiberpsixologik xabardorlikni oshirish: Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida talaba-yoshlar uchun raqamli qaramlikning oldini olish, kibergigiyena va vaqtni to‘g‘ri taqsimlash (*time-management*) bo‘yicha maxsus psixologik treninglar va tushuntirish ishlarini muntazam ravishta tashkil etish kerak. Onlayn va oflayn muvozanatni saqlash: Sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanishda shaxsiy chegaralarni aniq belgilash, kundalik hayotda real yuzma-yuz muloqot hamda ijtimoiy faollikni ustuvor qo‘yish. Ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish: Kelgusida kiberpsixologiya yo‘nalishida o‘smirlar va yoshlarning virtual identifikatsiya jarayonlarini empirik usullar yordamida chuqur o‘rganish hamda ularga mos amaliy psixologik korreksiya dasturlarini ishlab chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. — Toshkent : “O‘zbekiston” NMIU, 2020.

2. Mirziyoyev, Sh. M. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ilm-fan cho‘qqilarini egallash borasidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — URL: www.president.

3. Войскунский, А. А. Психологические исследования интернет-вызовов / А. А. Войскунский. — Москва : МГУ, 2010.

4. Baumeister, R. F., & Vohs, K. D. Self-Regulation, Ego Depletion, and Motivation // Social and Personality Psychology Compass. — 2007.

5. Shoumarov, G’. B. va boshqalar. Oila psixologiyasi. — Toshkent, 2018.

6. Mitra, S. The Hole in the Wall: Self-Organized Learning Environments / S. Mitra. — TED Conferences, 2014.

7. Turkle, S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other / S. Turkle. — New York : Basic Books, 2011

8. Войскунский, А. А. Гиперсенсорный интернет-фактор и его влияние на психику человека // Психологический журнал, 2015.